

Hatto go'rkovning ketmonida ham shirin orzu, go'zal maqsad bo'lishi mumkin. Guzardagi xotinlar hammomini xususiyashtirib olishdek ezgu niyatini ovozalab qo'yish uchun mahalla oqsoqolining huzuriga otlanib turgan Esonxo'ja, ko'cha eshikdan bezrayib kirib kelayotgan Qarnoqni ko'rib, ensasi qotdi. Uning tulkitirjayish tarzida bergen salomiga alikni isroflab o'tirmay, aftini tirishtirganicha jag'idagi soqolni qashladi.

Bebaqt kelding, shoshib turuvdim, deya Qarnoqqa arslonlanib qiyaladi u. Qolavursa, qarzini uzmay yurgan nomardlar bilan gaplashadigan gapim yo'q. Esingdami, Qarnoq sulla, yetti so'm qilib beraman deb, sakson to'qqizinchi yilda olti so'm qarz olganiding? O'shanda yetti so'mga ikkita tovuq berardi. Qachon qo'shqo'ltingda tovuq bilan kelasan, keyin gapingni eshitaman. Qarnoqdagi tulkitirjayish tuyqus bo'rio'grayishga aylandi.

Sizni odam deb, katta pul masalasida maslahatlashgani kelsam E, o'rgildim!

Qarnoq zardalanib ortga burilarkan, Esonxo'ja sergak tortdi. "To'xta! Qanaqa pul?" dedi ko'zi yiltirab.

Qarnoq darhol arazini yig'ishtirib, o'tgan kuni nosqovog'i sinib qolgach, axlatxonadan kichikroq nossishha qidirib yurib, suvqog'ozga o'rog'lik bir tutam dollar topib olganini maroq bilan so'zlashga tushdi. Nariroqda hovli supirib turgan bekaning supurgisi qo'lidan sirg'anib, yarq etib Qarnoqqa yuzlandi:

Dollar? Axlatxonada-ya?!

Esonxo'ja ham na'ra tortib yubordi:

Bir tutam dedingmi?

Ha, endi, bir tutam bo'lgandan keyin, bir tutam deyman-da, taltanglanib javob qildi Qarnoq.

Esonxo'janing daf'atan chehrasi yorishdi. Qarnoqqa xushomadlanib quchoq ochdi:

Ie, ie, ie! Assalomalaykum, Qarnoq boyvachcha. Bir achomlashib qo'yaylik. Sog'-salomatmilar? Bola-chaqalar omonmi? Qani, qani, so'riga yursinlar Mastona! Bitta achchiq choy damlagin

Esonxo'ja Qarnoqni so'riming to'rirog'iga o'tirgizdi, ishkomning ayrisiga ilingan dasturxoni olib, o'rtaga yoydi. Hayal o'tmay, Mastona ham paydo bo'ldi choynak-piyola, non, turli noz-ne'mat solingen katta barkashni ko'tarib kelib, eriga uzatdi. Esonxo'ja barkashni olayotib, qaynog'i bosilmagan sho'rvadan mehmonga bir kosa quyib kelishni xotiniga tayinlay boshlagan ediki, Qarnoq tosrayib gap qistirdi:

Iltimos, Mastonabonusi, ilikli ustixonni alohida bir tovoqchaga sopkelsangiz.

Sho'rvadagi bittayu bitta ustixonni o'zi g'ajib, iligini ham qoqib yegani Esonxo'janing yodiga tushdi va xotinining qulog'iga shipshitdi:

Ustixon itning oldiga yetib bormagan bo'lsa, atrofiga go'sht yopishtir. Ilikning o'rniga dumbayog'dan tiqvori.

Qarnoq uzatilgan choyni olib, "salsovug'im oshib turuvdi", deya uni piyoladagi asalning ustiga quydi, non bilan ataladi, huzurdan labini chapillatib-chapillatib ho'play ketdi.

Ayni sovug'ingiz oshganda, bizning asalga duch kepturganingizni qarang, dedi Esonxo'ja gezarib. Hm Shunday qilib, bir tutam dollar topvoldim deng?

Ha, rosa bir tutam, kavshanib bosh qimirlatdi Qarnoq. Men sizga aytasam, ilgari dollarni birovlarning qo'lida g'ira-shira ko'rib yurardim. Tap etib kaftimga qo'ndi-yu, o'zimni qaysi kavakka sig'dirishni bilmay qoldim.

Xex-xex-xe Joningizni chakki qiyabsiz, Qarnoq boyvachcha. Dollarni topiboq, tezda bizga o'xshaganlar bilan kengashvolishingiz keragidi.

Haliyam shunaqa qildim. Shodmon bizneschi esimga tushdi-yu, to'g'ri o'shaning oldiga yugurdim.

Eski dushmanining nomini eshitib, Esonxo'janing to'satdan fe'li aynidi.

Nima-a? deb bo'kirdi g'azabi qaynab. Uyimda o'tirib, Shodmonning otini atashga qanday hadding sig'di, Qarnoq sulla?

Dollaringni, kelib-kelib, o'sha manqaga pulladingmi? Tur o'rningdan! Jo'na, qorangni o'chir!

Esonxo'ja Qarnoqning yoqasidan tutamlab, ko'cha sari sudradi.

E, yoqamni qo'yvoring-e! Qarnoq bir sultanib, o'zini xalos qildi. Nima, dollarimni Shodmonga berib qo'yibmanmi? Qallobligi esimga tushib, yarim yo'lidan shartta orqaga qaytvordim.

Esonxo'janing qiyofasi zumda o'zgardi, "bag'o-o-yat ma'qul ish qipsiz, Qarnoq boyvachcha", deya iljayib boqdi. Qarnoqni quyuq mulozamat ila yana so'riming to'rirog'iga o'tirg'izdi.

Mastona sho'rva bilan ustixonni alohida idishlarda keltirib, dasturxonga qo'yib ketdi. Qarnoq yutinganicha yaktagining yengini shimardi. Kosadagi sho'rvani to'rt-besh simirishda gumdon qilib, yirtqichona vajohat bilan ustixonga yopishdi.

Qaynayverib, eti suyakdan ajrab ketibdi-ku, deya go'shtni olib, butunicha og'ziga tiqdi-da, chaynayotib g'o'ldiradi. Qiziq! Suyagi qo'yniki-yu, go'shti molniki-ya?

Bu zamondagi hayvonlargayam tushunib bo'lmay qoldi, Qarnoq boyvachcha, burni kabi do'ngalak boshmaldog'ida tasbeh donalarini surayotib, qiroat bilan so'zlatdi Esonxo'ja. Tunov kuni bir fermer oshnamnikiga borsam, echkining bolasi cho'chqani emib turibdi. Ana shu uloq ulg'aysa, qarabsizki, suyagi echkiniki-yu, go'shti cho'chqaniki bo'pturibdi-da.

Qarnoq avval ham bir sinab ko'rilgan suyakka qayta ishlov berishga unnayotganida, Esonxo'ja gapni tag'in maqsadga burdi: Shodmon manqa nihoyatda imonsiz odam. Bundan bu yog'igayam bizdek oxiratini o'laydiganlar bilan ish qiling.

Uyga qaytdim-u, juda g'alati ishlar bo'ldi, Eson aka

O'sha kuni yarim yo'lidan qaytgach, Qarnoq dollarlarini qaerga yashirishni bilmay, kechgacha uyda ivirsib yurdi. Oxiri, qorong'i tushirib, sekin tomorqaga o'tdi. Tomorqa etagidagi qurigan ariqning ichida yotgan eski tunuka choynakni ko'rib, miyasiga charaqlagan bir fikr keldi. Dollarli suvqog'ozni choynakning ichiga tiqib, og'zini tepib bukladi, uni ariqning kamariga joylab, ustiga xas-xashak tashladi.

Bu gaplarni eshitib, Esonxo'ja mug'ambirona tirjaydi:

Ja pixini yorgan odamsiz-da. Nihoyatda puxta ish qipsiz.

E, puxtaligim qursin, qo'lini sochiqqa artayotib, kekirdi Qarnoq. Palakatni ko'ringki, kechasi bir ariq suv kelib, choynakni oqizib ketibdi. Kamarni chuvolchangdek titkiladim yo'q!

Esonxo'janing ko'zlarini qinidan chiqqudek bo'lib, tasbehni chetga uloqtirdi.

Xumbosh! To'nka! Eshakmiya! deya yana Qarnoqning bo'g'zidan oldi u. Qaysi jinni pulni ariqqa tashlab qo'yadi, Qarnoq sulla? Tur! Tur deyapman, bezot! Yo'qol ko'zimdan!

Qarnoq Esonxo'janing ko'kragidan itarib tashlab, shang'lladi:

Vey! Qanaqa odamsiz? Gapni oxirigacha eshititing-da. Ariqni ikki chaqirim titkilab bordim. Topdim choynakni.

This is not registered version of TotalDoc Converter.  
Bishnuzda surʼulishiga ESONXO ja, bishnuzda surʼulishini boshladi.

Ie-ie! ogʼzining tanobi qočib, muloyim eshlidi u. Pulni topganlari qutlug' boʼlsin, Qarnoq boyvachcha. Xudo bir qaytarib beribdi-da, a? Qani, qani, toʼriroqqa chiqsinlar

Mastona kelib, shoʼrvaning idishlarini yigʼishtirishga kirishdi.

Sizga yana bitta iltimosim bor, Mastonabonu, surlanib gap gʼildiratdi Qarnoq. Mabodo, shavla-pavlaga urinsalar, ikki dona koʼk qalampirdanam tashlab qoʼysinlar.

Mastona eriga qaradi. "Bor, tezroq shavlani tashkil qil", degan buyruqni olgach, qoʼlidagi boʼsh idishlarni shiqirlatib, oshxona tomonga yoʼrgʼaladi.

Esonxoʼja Qarnoqning holva oshalashini gezarganicha kuzatib turib, asta soʼz qotdi:

Hartugur, bilib qoʼyganimiz tuzuk. Dollarlarni menga opkelishdan maqsad nima oʼzi?

Oʼzimizning soʼmga almashtirsam degandim. Bonkaga boray desam, birortasi "buni qayoqdan olding" deb qolsa...

Maʼqul, Qarnoq boyvachcha, judayam maʼqul. Qani, bu yoqqa uzatsinlar-chi boʼlmasa.

Bodomli likobi oldiga yaqinroq surayotgan Qarnoq belbogʼining qatidan suvqogʼoz oʼramini sugʼurib, dimogʼdorlik bilan uzatdi.

Esonxoʼja oʼramni olib, uni ehtiyyotkorona ocharkan, tavoze ila soʼz boshladi:

Endi-i qiyomat qarz yomon narsa, Qarnoq boyvachcha. Yaʼni, sakson toʼqqizinchı yildagi yetti soʼm qarzingizni aytaman-da. Oldin dollarlarni soʼmga aylantiramiz. Keyin, ikkita tovuqning pulini hozirgi narxga chaqib, menga qaytaradilar.

Boʼpti, beraman.

Barakalla, Qarnoq boyvachcha, barak-k

Suvqogʼozni ochib, birdan Esonxoʼjaning rangi oqardi. "Hov! Bu nima?" deb Qarnoqqa chaqchaydi.

Nima balo, dollarni tanimay qoldingizmi?

Shuni dollar deb yuribsamni, Qarnoq sulla? ogʼzidan tupuk sachratdi Esonxoʼja. Bolalarning "Biznes-biznes" degan oʼyini bor.

Bular oʼsha oʼyinda ishlatiladigan oʼyinchoq dollar-ku.

Kalla bormi? Pulniyam oʼyinchogʼi boʼlarkanmi?!

E, tur-e! Tur deyapman senga!

Esonxoʼja Qarnoqni koʼchaga ithaydash qilib borgach, eshikni qattiq yopib, kallasi qaltiraganicha tutoqib gʼudrandi:

He tagi past! Oʼzing kim-u, toʼriga chiqvolib, ilik qoqib yeypishingga oʼlaymi!

Oshxonadan chiqib kelgan Mastona u yoq-bu yoqqa alanglab olib, eriga hayron koʼz qadadi:

Mehmon qani, dadasi? Shavlani boshlab qoʼyuvdim.

Qanaqa shavla? tomogʼi yirtilgudek alfozda ayyuhannos soldi Esonxoʼja. Oʼzi buyoqda ish atala boʼpturibdi. Bor, oʼtniyam oʼchir, ovozingniyam oʼchir!

2001